


## ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR

Xorazm viloyatida ijtimoiy soha va iqtisodiy rivojlantirish uchun barcha mulkchilik shakllaridagi tashkilotlarning 2020-yil yanvar-sentabr oylarida asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 4962,4 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 112,6 % ga ko‘paydi.



## Asosiy kapitalga investitsiyalar 2020-yil yanvar-sentabr

	<i>Mlrd. so‘m</i>	<i>O‘sish sur’ati, % da</i>	<i>Jami hajmga nisbatan %da</i>
--	-------------------	---------------------------------	-------------------------------------

<b>Viloyat jami</b>	<b>4962,4</b>	<b>112,6</b>	<b>100,0</b>
---------------------	---------------	--------------	--------------

*shu jumladan:*

<b>Markazlashgan investitsiyalar</b>	<b>726,3</b>	<b>81,2</b>	<b>14,6</b>
Davlat byudjeti mablag‘lari	352,5	67,9	7,1
Suv ta’minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi	142,5	2,6 m.	2,9

Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi	-	-	-
O’zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi chet el kreditlari	231,3	2,5 m.	4,6

<b>Markazlashmagan investitsiyalar</b>	<b>4236,1</b>	<b>120,6</b>	<b>85,4</b>
Korxona o‘z mablag‘lari	1271,4	185,2	25,6
Aholi mablag‘lari	864,8	87,3	17,4

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlari	980,0	95,4	19,8
--	-------	------	------

	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>O'sish sur'ati, % da</i>	<i>Jami hajmga nisbatan %da</i>
--	-------------------	-----------------------------	---------------------------------

Tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari

1119,9

138,7

22,6

Umumiy hajmning markazlashtirilgan moliyalashtirish manbalari hisobidan 726,3 mld so'm asosiy kapitalga investitsiyalar yoki umumiy hajmning 14,6% o'zlashtirildi, shuningdek markazlashmagan moliyalashtirish manbalari orqali 4236,1 mlrd so'm (yoki 85,4%).




**Korxona mablag'lari-1271,4 mlrd.so'm**

**Aholi mablag'lari-864,8 mlrd. so'm**

**To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar-980,0 mlrd. so'm**


**Tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari-1119,9 mlrd. so'm**

## Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar




Asosiy kapitalga investitsiyalarning yuqori o'sish sur'atlari quyidagi shahar va tumanlardada kuzatildi: Xonqa - 174,8% (asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 548,9 mlrd. so'm), Yangibozor - 169,3% (382,8 mlrd. so'm) , Gurlan - 152,3% (367,7 mlrd. so'm), Xiva shahar - 151,5% (350,4 mlrd. So'm).

## Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar



Shuningdek ayrim hududlarda o'tgan yilga nisbatan kamayish kuzatildi, jumladan Xiva tumani 65,0 % (184,4 mlrd. so'm), Bog'ot tumani 88,3 % (418,9 mlrd. so'm), Qo'shko'pir tumani 93,9 % (251,9 mlrd. so'm)va Yangiariq tumani 73,4 % (276,0 mlrd. so'm).


## Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar



Aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 2020-yil yanvar-sentabrida 2646,2 ming so'm yoki 110,8 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi bo'yicha yuqori ko'rsatkich Urganch shahriga to'g'ri kelib 7883,3 ming so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 107,2 % ni tashkil etdi, Yangibozor tumanida 4380,1 ming so'm (yoki 166,8 %) va Xiva shahrida 3788,2 ming so'm (yoki 149,3 %) qayd etildi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarni o'zlashtirish: qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi - 1150,3 mlrd. so'm (jami investitsiyalarning 23,2%), ishlab chiqarish sanoati - 958,7 mlrd. so'm (19,3%), qurilish - 247,4 mlrd. so'm (5,0%), ulgurji va chakana savdo, avtotransport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash - 403,2 mlrd. so'm (8,1%), ta'lim - 236,4 mlrd. so'm (4,8%), uy-joy qurilishi - 590,5 mlrd. so'm (11,9%) va boshqa faoliyat turlari - 1124,2 mlrd. so'm (22,6%).

### Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar

2020-yilning yanvar-sentabr oylarida 1211,2 mlrd. so'm o'zlashtirilib (dollar ekvivalentida 121,8 mln. AQSH doll.), o'tgan yilning mos davriga nisbatan 108,0 % tashkil qildi.

Xorijiy investitsiyalar va kreditlarning umumiy tarkibida xorijiy investitsiyalar 343,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va shuningdek 867,8 mlrd. so'm xorijiy kreditlarga to'g'ri keldi.

Joriy davrda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning umumiy hajmidan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar 268,5 mlrd. so'mni, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar - 231,3 mlrd. so'mni, boshqa xorijiy investitsiya va kafolatlanmagan kreditlar - 711,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Xorijiy investitsiya va kreditlarning eng katta ulushi Urganch shahriga to'g'ri kelib, jami xorijiy investitsiya va kreditlardagi ulushi 30,5 % ni ta'minladi, Xiva shahri (11,1 %), Gurlan tumani 9,1 % kuzatildi.

## Xorijiy investitsiya va kreditlar


	<i>Xorijiy investitsiya va kreditlarni o'zlashtirishi, mlrd. so'm</i>		<i>Xorijiy investitsiya va kreditlarni o'zlashtirishi, nisbatan % da.</i>	
	<i>Jami:</i>	<i>Shu jumladan, kreditlar:</i>	<i>Jamiga:</i>	<i>Asosiy kapitalga investitsiyalar:</i>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>1 211,2</b>	<b>867,9</b>	<b>100</b>	<b>24,4</b>

### *shahar va tumanlar:*

<b>Urganch sh.</b>	369,4	272,4	30,5	32,5
<b>Xiva sh.</b>	135,1	83,2	11,1	38,5
<b>Bog'ot</b>	109,9	107,9	9,1	26,2
<b>Gurlan</b>	109,8	102,5	9,1	29,9
<b>Qo'shko'pir</b>	53,1	31,9	4,4	21,1
<b>Urganch</b>	81,5	57,5	6,7	19,9
<b>Hazorasp</b>	33,3	33,3	2,7	14,6
<b>Tuproqqa'l'a</b>	47,8	15,0	3,9	35,3
<b>Xonqa</b>	108,8	37,8	9,0	19,8
<b>Xiva</b>	18,0	17,6	1,5	9,7
<b>Shovot</b>	57,5	34,5	4,7	21,1
<b>Yangiariq</b>	13,1	13,1	1,1	4,8
<b>Yangibozor</b>	73,9	61,2	6,1	19,3

Xorijiy investitsiya va kreditlarning jami asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalardagi ulushi 24,4 % ni tashkil qildi.

## Xorijiy investitsiya va kreditlarni o‘zlashtirish (*mlrd. so‘m*)



Jami o‘zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar umumiy hajmga nisbatan 19,1 %, yoki 231,3 mlrd. so‘m O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar, 80,9 % yoki 980,0 mlrd. so‘m xorijiy investitsiya va kreditlar, shundan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya 268,5 mlrd. so‘mni tashkil qildi.

## Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi

**Qurilish-montaj ishlari**  
• 41,6%

**Mashina asbob-uskunalar va inventar**  
• 51,5%

**Boshqa xarajatlar**  
• 6,8%

**Jami investitsiyalar**  
**100 %**



## Xorazm viloyat statistika boshqarmasi

Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida viloyatda qurilish-montaj ishlarining ulushi 41,6%, mashina va uskunalar sotib olish xarajatlari - 51,6%, boshqa xarajatlarning - 6,8% ni tashkil etdi.

**Xorazm viloyati Statistika boshqarmasi  
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo‘limi  
Nashr uchun mas’ul: Sh.Babajanov  
Telefon: (0362) 224-65-22.**